



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT:

YANGI TARIX VA YANGI DUNYOQARASH



Ilmiy-amaliy
konferensiya
MATERIALLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**“MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT: YANGI TARIX VA YANGI
DUNYOQARASH”**

ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

(Chirchiq sh, 2025 yil 5 noyabr)

“Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash”

mavzusidagi

KONFERENSIYA TASHKILIY QO'MITASI

Rais:

Muxamedov G.I.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Eshchanov B.X.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Ikramov R.A.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani

L.K.Axatov

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

Tashkiliy qo'mitaning ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Koshanova N.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Tashmetov T.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Neshitov P.Yu.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Eronov S.Q.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Xaytmetov R.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Muhammadiyev L.G.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Nafasov A.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Sunnatov T.R.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tuganova L.Dj.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Ilmurodova F.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Yo'ldoshev U.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Sa'dullayeva M.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Xolmo'minov G.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Miraxmedova Sh.N.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Jurayev H.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Yakubov X.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Imomova U.I.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tadjibayeva R.O.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Umarova Sh.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Nurmanov Sh.J.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Maxkamov D.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Fayzullayev F.E.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

MILLIY DINLAR.**Davlatboyeva Ro'za Tozaboy qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

rozadavlatboyeva1@gamil.com

Ilmiy rahbar: Fayzullayev Farrux

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy dinlar tushunchasi tahlil qilinadi, ularning xususiyatlari bilan bir qator tushuntirish olib boriladi. Shuningdek, milliy dinlarning dunyo miqyosidagi o'rnini hamda zamonaviy dunyoda (xususan O'zbekiston kabi davlatlarda) din va davlat munosabatlari masalalari muhokama qilinadi. Maqolada ilmiy asoslarga tayangan holda milliy dinlarning ahamiyati, kamchiliklari va zamonaviy kontekstda duch keladigan muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy dinlar, yahudiylilik, Hinduizm, Konfutsiylik, Sintoizm, Daosizm, Din va davlat.

Annotation: This article analyzes the concept of national religions, provides a number of explanations about their characteristics. It also discusses the role of national religions in the world and the issues of religion and state relations in the modern world (especially in countries such as Uzbekistan). The article examines the importance, shortcomings and problems of national religions in the modern context based on scientific foundations.

Keywords: National religions, Judaism, Hinduism, Confucianism, Shintoism, Taoism, Religion and state.

Milliy dinlar – o'z mazmun-mohiyati bilan asosan bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlardir. Milliy dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'nggi davrlarini bir-biridan farqlash kerak. Dastlabki Milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik, ya'ni ko'p xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi – yer osti podshohligining xudosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Quldorlik jamiyatidagi dastlabki Milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavvurning paydo bo'lishi va unga ishonishidir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri

hisoblanar edi. Xudolar yo'lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurbon qilinardi. Milliy dinlar rivojlanishining so'nggi davrlariga kelib odamlar o'rniga hayvonlar qurbon qilina boshlagan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ'ib qilina boshladi. Milliy dinlar elat ya'ni millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakllanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Eng so'nggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: hinduizm, jaynizm, sikkizm, daosizm, konfutsiylik, sintoizm va iudaizm yahudiylilik.

Yahudiylilik — eng qadimgi yakkaxudolik (monoteistik) dinlardan biri bo'lib, yahudiy xalqi orasida miloddan avvalgi XII–X asrlar oralig'ida Falastin hududida vujudga kelgan. Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil hisoblanadi. Isroil Yaqub Payg'ambarning ikkinchi ismi. Banu bolalar ma'nosini bildiradi. Yahudiylar Yahve xudo parvardigor, xudo ma'nolarini bildiradi. Shundan keyin Is'hoq, Yoqub (Isroil) va uning o'n ikki o'g'li orqali yahudi xalqi shakllangan. Muqaddas kitoblari: Tavrot va Talmut. Tavrot (Tora) – yahudiylilikning eng muqaddas kitobi bo'lib, Xudo tomonidan Musoga nozil qilingan deb e'tiqod qilinadi. U besh qismdan iborat: Ibtido (Bosh kitob), Chiqish, Leviynlar, Sonlar, Qonunlarning takrori

Talmut – Tavrotning sharhlari, diniy qonunlar, marosimlar va axloqiy qoidalarni o'z ichiga olgan asar to'plami. U Mishna va Gemara qismlaridan iborat.

Hinduizm - dunyodagi eng qadimiy va eng yirik milliy dinlardan biridir. U asosan Hindiston va Nepal hududlarida shakllangan va asosan hind xalqi orasida keng tarqalgan. Shuning uchun u milliy dinlar toifasiga kiradi. Hinduizmga yagona asoschi, muassis yoki aniq shakllangan markaz yo'q; u ming yillar davomida shakllangan diniy, falsafiy va madaniy tizim hisoblanadi. Asosiy bosqichlari: Vedalar davri – (m.a. XV–VI asrlar) diniy qo'shiqlar, qurbonliklar, marosimlarga asoslangan davr. Upanishadlar davri – falsafiy tafakkur, inson va olam mohiyati, ruh (Atman) va oliy kuch (Brahman) haqidagi ta'limotlar rivojlandi. Klassik Hinduizm – turli oqimlar, xudolar, afsonalar shakllanib, "Mahabharata" va "Ramayana" dostonlari paydo bo'ldi. Hinduizm dini Hindiston aholisining 650 millioni ya'ni 83%ni tashkil qiladi. Sheva – oddiy xalqlar uchun. Kambag'al ilohi hisoblanadi. Vishnu – asosan yirik zodagonlar uchun.

Konfutsiylik – Konfutsiy mil.avv 551 – 479. Konfutsiylik yuksak ma'naviyatli inson obrazini shakllantirish. Axloqiy fazilatlar ijtimoiy tarhid ni mustahkamlashga qaratilgan diniy falsafiy tizim hisoblanadi. Xudo yoki Ilohiy mavjudotlar haqida aniq e'tiqod yo'q. Daosizm Xitoyda tarqalgan konfutsiylik bilan bir vaqtda boshlangan ta'milot. Hukmdorlar o'rtasidagi urush qoralangan falsafiy qarashlarida otin asrga

qaytishga harakat qilingan. Ularning muqaddas manbasi Daoditszin. Uning asoschisi Lao Szi hisoblanadi.

Sintoizm - (yaponcha Shintō, “xudolarga sig‘inish yo‘li” ma’nosida) — Yaponiya xalqining milliy dini bo‘lib, u asosan tabiat kuchlariga, ajdodlar ruhlariga va muqaddas mavjudotlarga sig‘inishga asoslanadi. Sintoizm — milliy dinlar turkumiga kiradi, chunki u asosan yapon xalqi orasida shakllanib, shu millat madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Sintoizmning aniq asoschisi yo‘q. U qadimiy yapon qabilalarining animistik e’tiqodlari, ruhlarga ishonch, tabiat hodisalarini muqaddas deb bilishdan kelib chiqqan. Taxminan miloddan avvalgi I ming yillikda Sintoistik urf-odatlar Yapon orollarida shakllangan. VIII asrda (milodiy 700-yillar atrofida) sintoizm yozma shaklga kiritilib, muqaddas matnlar — “Ko’jiki” (“Qadimgi voqealar to‘plami”) va “Nihon Shoki” (“Yapon yilnomalari”) paydo bo‘ldi. Ushbu asarlarda Yaponiyaning ilohiy yaratilishi, xudolar avlodi bo‘lgan imperatorlar va xalqning ilohiy nasabi haqida rivoyatlar keltirilgan. Sintoizmning markazida “kami” tushunchasi turadi. Kami — bu tabiatdagi, insondagi yoki buyumdagi muqaddas ruhiy kuchdir. Har bir daryo, tog‘, daraxt, hayvon, hatto ajdod ruhlari ham kami bo‘lishi mumkin. Sintoizmda yuz minglab kami mavjud, ammo eng muhimlari quyidagilar: Amaterasu — Quyosh ma’budasi, Yaponiya imperatorlari shu xudoning avlodlari deb e’tirof etiladi. Tsukuyomi — Oy xudosi. Susanoo — shamol va bo‘ron xudosi. Inari — hosildorlik va mo‘l-ko‘llik xudosi. Hachiman — urush va himoya xudosi. Sintoizmda ibodat joyi “Jinja” (ibodatxona) deb ataladi. Eng mashhurlari: Ise Jingu — Amaterasu ma’budasiga bag‘ishlangan eng muqaddas ibodatxona; Izumo Taisha — qadimiy xudolarga bag‘ishlangan markaz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Milliy dinlar — insoniyat tarixining eng qadimiy e’tiqodiy tizimlaridan biri bo‘lib, ular muayyan xalq yoki millatning madaniy, axloqiy va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Bunday dinlar umumiy insoniy qadriyatlarni emas, balki muayyan millatning ruhiy olami va an’analarini ifodalaydi. Masalan, yahudiylar — yahudiy xalqining milliy dini sifatida yagona Xudoga ishonch, adolat va axloqiy poklik g‘oyalarini ilgari suradi.

Hinduizm — hind xalqining qadimiy dini bo‘lib, u karmaga, qayta tug‘ilish (samsara) va moksha g‘oyalariga asoslanadi. Konfutsiylik — Xitoyda shakllanib, insoniy fazilat, hurmat, axloqiy tartib va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’kidlaydi. Daosizm esa tabiat bilan uyg‘un yashash, hayot oqimiga qarshi chiqmaslik va ruhiy osoyishtalikni maqsad qiladi. Sintoizm esa yapon xalqining dini bo‘lib, tabiat kuchlariga, ajdodlar ruhlariga va muqaddas mavjudotlarga (kami) sig‘inishga asoslangan. Ushbu dinlar har biri o‘z

xalqining madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashida muhim o'rin tutadi. Ular orqali millatlar o'z tarixiy ildizlarini, ma'naviy merosini va milliy o'zligini asrab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xojayev, A., va R. Jumaboyev. "Dinshunoslik." – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
2. Rahimov, M. "Dinshunoslik asoslari." – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2015.
3. Berdiev, N. "Jahon dinlari tarixi." – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2020.
4. Bashiri, I. "Zardushtiylik, hinduizm va sharqiy dinlar." – Dushanbe: Irfon, 2010.